




JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2024- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va
dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi

KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- dekabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari **18 739** tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar **15 643** ta.

Shuningdek, ushbu davrga **32 398** ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,2** foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiylumotlar

(1- dekabr holatiga)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)**

2024- yil yanvar-noyabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 4 262 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoxda. Jumladan: Jizzax shahri (53 taga), Arnasoy tumani (99 taga) va Sharof Rashidov tumanida (24 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sanoat – 130 taga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 50 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- dekabr holatiga 18 739 tani tashkil etdi, ulardan 15 727 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 28,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17,2 foiz, sanoat – 12,9 foiz, qurilish – 6,9 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Jizzax shahrida – 26,2 foiz, tumanlardan Sharof Rashidov – 13,3 foiz, G'allaorol – 9,3 foiz, Zomin – 9,0 foiz va Baxmalda – 7,5 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	4 909
2 492	Sh.Rashidov t.
G'allaorol t.	1 750
1 683	Zomin t.
Baxmal t.	1 404
1 392	Forish t.
Zarbdor t.	979
919	Paxtakor t.
Arnasoy t.	799
724	Do'stlik t.
Mirzacho'l t.	655
553	Zafarobod t.
Yangiobod t.	480

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoxda. 2024- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 167 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 4 150 ta;
- yirik korxonalar 17 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	933
G’allaorol t.	482
Sh.Rashidov t.	443
Zomin t.	410
Forish t.	350
Baxmal t.	314
Arnasoy t.	289
Zarbdor t.	255
Paxtakor t.	177
Do’stlik t.	155
Zafarobod t.	127
Yangiobod t.	119
Mirzacho’l t.	113

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- dekabr holatiga 15 727 tani tashkil etdi, ulardan 15 643 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 20,3 foiz, sanoat – 15,3 foiz, qurilish – 8,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,5 foiz, tashish va saqlash – 2,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,6 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, boshqa turlari – 10,1 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida sanoat sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 773 tadan 901 taga (o‘sish 128 taga), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 1 158 tadan 1 195 taga (o‘sish 37 taga) ko‘paydi.

Yillar kesimida soni

(birlikda)




Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Jizzax sh.	930
G‘allaorol t.	481
Sh.Rashidov t.	441
Zomin t.	410
Forish t.	349
Baxmal t.	311
Arnasoy t.	288
Zarbdor t.	254
Paxtakor t.	176
Do‘slik t.	155
Zafarobod t.	123
Yangiobod t.	119
Mirzacho‘l t.	113


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Jizzax shahrida (26,8 foiz), Sharof Rashidov (13,8 foiz), G'allaorol (9,5 foiz), Zomin (8,8 foiz) va Forish (7,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.




**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
(2024- yil 1- dekabr holatiga)**

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Forish (18,9 foiz), Sh.Rashidov (12,0 foiz) va Baxmal (10,7 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Dehqonchilik va chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

3 058



16

Baliq ovlash va
akovakultura

O'rmonchilik va
yog'och taylorlash

156



Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024- yil 1- dekabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxona va tashkilotlarning 12,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,4 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,3 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, 1,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Jizzax sh.	667
Sh.Rashidov t.	383
G'allaorol t.	265
Zomin t.	253
Baxmal t.	131
Zarbdor t.	126
Forish t.	125
Paxtakor t.	117
Do'stlik t.	90
Arnasoy t.	74
Mirzacho'l t.	72
Zafarobod t.	59
Yangiobod t.	47

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2024- yil 1- dekabr holatiga)


O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 50,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 23,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 26,8 foiz ulushni tashkil etdi;

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Jizzax sh.	504
Sh.Rashidov t.	186
Zomin t.	101
G'allaorol t.	98
Paxtakor t.	77
Zarbdor t.	66
Baxmal t.	51
Forish t.	50
Do'stlik t.	37
Arnasoy t.	35
Mirzacho'l t.	34
Zafarobod t.	27
Yangiobod t.	23

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Bino va
inshootlar qurish

645



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

346



Fuqarolik
obyektlarini qurish

298



(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 100,2 foizi yoki 5 229 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 26,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,7 foiz ulushni tashkil etdi


Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Jizzax sh.	1 507
Sh.Rashidov t.	723
G'allaorol t.	503
Zomin t.	496
Baxmal t.	368
Paxtakor t.	299
Arnasoy t.	271
Forish t.	267
Zarbdor t.	235
Do'stlik t.	196
Zafarobod t.	162
Mirzacho'l t.	108
Yangiobod t.	103

Yillar kesimida soni

(birlikda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024- yil 1- dekabr holatiga 1 180 taga yetib, ularning 1 176 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 8,5 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-vqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 91,5 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	381
Sh.Rashidov t.	210
Zomin t.	100
G'allaorol t.	93
Baxmal t.	68
Paxtakor t.	64
Zarbdor t.	59
Forish t.	46
Do'stlik t.	45
Mirzacho'l t.	42
Arnasoy t.	28
Yangiobod t.	23
Zafarobod t.	21

Yillar kesimida soni (birlikda)



Oziq-ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha
xizmatlar

100

(2024- yil 1- dekabr holatiga)

2024-yil 1-dekabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonining 70,1 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlilik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 17,3 foizini;

Ko'rsatuvalar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 12,7 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Jizzax sh.	114
Sh.Rashidov t.	20
Paxtakor t.	18
Baxmal t.	15
Arnasoy t.	14
G'allaorol t.	12
Zomin t.	10
Zarbdor t.	8
Zafarobod t.	6
Forish t.	6
Do'stlik t.	5
Yangiobod t.	5
Mirzacho'l t.	4

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Kompyuter dasturlashtirish,
maslahat berish va boshqa
yordamchi xizmatlar

115

40

Aloqa



Noshirlilik faoliyati

23

51

Axborot xizmati
ko'rsatish
sohasidagi faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion
dasturlari, fonogrammalar
va musiqali yozuvlarni
ishlab chiqish

7

1

Dasturlar yaratish bo'yicha
faoliyat va teleko'rsatuv
va radioeshittirish



(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 326 ta yoki 1,7 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 93,3 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi korxonalar soni 4,6 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,1 foizini tashkil etdi.


Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Jizzax sh.	163
G'allaorol t.	34
Zomin t.	32
Baxmal t.	18
Sh.Rashidov t.	18
Paxtakor t.	12
Forish t.	11
Zarbdor t.	9
Mirzacho'l t.	8
Yangiobod t.	7
Do'stlik t.	6
Zafarobod t.	5
Arnasoy t.	3

Yillar kesimida soni

(birlikda)



Sog'liqni saqlash
sohasidagi
faoliyat



Yashash uchun joy
bilan ta'minlangan
holda parvarishlash

15



(2024- yil 1- dekabr holatiga)

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**


Jizzax sh.	144
Sh.Rashidov t.	73
Zomin t.	23
Paxtakor t.	23
Baxmal t.	20
G'allaorol t.	19
Zarbdor t.	18
Arnasoy t.	13
Do'stlik t.	12
Mirzacho'l t.	11
Forish t.	7
Yangiobod t.	6
Zafarobod t.	6

2024- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 74,4 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 23,5 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 2,1 foizni tashkil etgan.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



8

Pochta va kuryerlik



88

ombor xo'jaligi va yordamchi
transport faoliyati



279

Quruqlikdagi va quvur transporti



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiylumot

(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quydagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hoidisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko'rsatayotgan
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

11 934

**mas'uliyati cheklangan
jamiyat**

75,9

2 198

xususiy korxonalar

14,0

1 380

oilaviy korxonalar

8,8

15

aksiyadorlik jamiyat

0,1

200

boshqalar

1,3

(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	784
Zomin t.	347
Sh.Rashidov t.	346
Forish t.	340
G'allaorol t.	312
Baxmal t.	283
Arnasoy t.	273

Zarbdor t.	208
Do'stlik t.	147
Paxtakor t.	108
Mirzacho'l t.	106
Yangiobod t.	101
Zafarobod t.	81

(2024- yil dekabr holatiga)

Amaldagi 15 727 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024- yil 1- dekabr holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 11 934 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 20,9 foiz, sanoat – 13,9 foiz, qurilish – 9,4 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	3 558
Sh.Rashidov t.	1 765
Zomin t.	977
Baxmal t.	947
G'allaorol t.	895
Forish t.	797
Zarbdor t.	625

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


G‘allaorol t.	124
Paxtakor t.	55
Zafarobod t.	38
Jizzax sh.	21
Zarbdor t.	15
Zomin t.	10
Arnasoy t.	9

Yangiobod t.	9
Sh.Rashidov t.	8
Forish t.	4
Do‘slik t.	2
Baxmal t.	1
Mirzacho‘l t.	1

(2024- yil 1- dekabr holatiga)

2024- yil 1- dekabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan G 'allaorol – 409 ta, Forish – 343 ta, Jizzax shahrida – 292 ta, Zomin – 217 ta va Paxtakorda – 178 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 858 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 465 ta, sanoatda – 250 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 203 ta.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

G'allaorol t.	409
Forish t.	343
Jizzax sh.	292
Zomin t.	217
Paxtakor t.	178
Sh.Rashidov t.	121
Yangiobod t.	108

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko’rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo’lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	127
Sh.Rashidov t.	88
Zomin t.	53
G’allaorol t.	46
Baxmal t.	30
Zarbdor t.	30

Paxtakor t.

Paxtakor t.	14
Yangiobod t.	9
Zafarobod t.	7
Arnasoy t.	6
Do’stlik t.	6
Mirzacho’l t.	6
Forish t.	1


(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 1 380 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: sanoat – 34,1 foiz, savdo – 31,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 16,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 10,1 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Jizzax shahri – 23,0 foiz, Sharof Rashidov – 18,8 foiz, Zomin tumanlarida – 13,0 foiz va G'allaorol – 12,1 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	318
Sh.Rashidov t.	259
Zomin t.	179
G'allaorol t.	167
Paxtakor t.	130
Zarbdor t.	86
Baxmal t.	57

Do'stlik t.	47
Zafarobod t.	47
Forish t.	32
Yangiobod t.	21
Mirzacho'l t.	20
Arnasoy t.	17

Yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari to'g'risida ma'lumotlar

(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

22

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

Mavsumiy va ko'p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo'limning asosiy yo'nalishlari bo'lib, fermer xo'jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiyligi sonining 100,0 foizini tashkil etadi



>>




>>



Baliq ovlash va akvakultura

Ushbu bo'limning eng muhim yo'nalishlari yog'och tayyorlash va o'rmon bo'Imagan o'rmon mahsulotlarini yig'ish bo'lib, ularning ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari mavjud emas.

O'rmonchilik va yog'och tayyorlash




Baliq ovlash va akvakultura vakillari baliqchilik bo'limi faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lib, ularning fermer xo'jaliklari sonidagi ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari mavjud emas.



Yillar kesimida soni (birlikda)

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Zarbdor t.	7
Do'stlik t.	4
G'allaorol t.	3
Sh.Rashidov t.	2
Yangiobod t.	2
Arnasoy t.	1
Baxmal t.	1
Mirzacho'l t.	1
Paxtakor t.	1



(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Jizzax viloyatida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismalaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan.

Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Baxmal (14,8 foiz), G'allaorol (14,8 foiz) va Zomin (13,0 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Baxmal t.	1 102
G'allaorol t.	1 098
Zomin t.	968
Sh.Rashidov t.	897
Zarbdor t.	740
Arnasoy t.	501
Zafarobod t.	440
Mirzacho'l t.	436
Do'stlik t.	407
Forish t.	341
Paxtakor t.	318
Yangiobod t.	153
Jizzax sh.	31

Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chovvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish



Baliq ovlash va akvakultura

1



O'rmonchilik va yog'och tayyorlash



4- BO'LIM. CHET EL INVESTITSIYASI ISHTIROKIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR

Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot


(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

2024- yil yanvar-noyabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'sish sur'ati 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 2,9 barobarga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	29	Baxmal t.	3
Arnasoy t.	6	Zafarobod t.	3
Zomin t.	6	Forish t.	2
Sh.Rashidov t.	5	Zarbdor t.	1
G'allaorol t.	4	Paxtakor t.	1

Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024- yil 1- dekabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 208 ta korxonalardan 93 tasi qo'shma korxonalar va 115 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	84
Forish t.	24
Sh.Rashidov t.	21
Zomin t.	16
G'allaorol t.	13
Arnasoy t.	10
Paxtakor t.	10


Zafarobod t.	8
Baxmal t.	5
Do'stlik t.	5
Yangiobod t.	5
Mirzacho'l t.	4
Zarbdor t.	3

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 8,3 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 71 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkiya egallagan. Bu respublikada chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 34,1 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi 33,7 foiz), Rossiya Federatsiyasi (ulushi 20,7 foiz), Buyuk Britaniya (ulushi 4,3 foiz) va AQSh (ulushi 2,4 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2024- yil 1- dekabr holatiga)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumotlar

28

Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberalallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Jizzax shahriga - 40,4 foiz, tumanlar orasida esa Forish – 11,5 foiz, Sharof Rashidov – 10,1 foiz va Zominga – 7,7 foiz to'g'ri keladi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagি** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'llimlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2024- yil 1- dekabr** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



PRESS-RELIZ

